

FEODOR DOSTOYEVISKIYNING “OYDIN TUNLAR” ROMANIDA XAYOLPARAST QAHRAMON TAVSIFI

Qudratova O‘g‘iloy Tohir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17458703>

Annotatsiya. Maqolada Dostoyevskiyning inson psixologiyasini ochib berish mahorati, uning “Oydin tunlar” romani, asar qahromoni bo‘lgan xayolparast haqida suhbatlashamiz.

Inson ichki olamida muhabbatga bo‘lgan muhtojlik, uning o‘rni shu bilan birga yolg‘izlik qo‘rquv masalalari ochib berilgan. Bu orqali Dostoyevskiy asarlarini chuqur o‘rganish, uni kitobxonlarga tushuntirish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: “Oydin tunlar”, xayolparast obrazi, ijtimoiy tahlil, paradoksallik prinsipi, konflikt.

Annotation. The article discusses Dostoevsky’s mastery in revealing human psychology through his work “White Nights” and the character of the dreamer — the main hero of the story.

It explores themes such as a person’s inner need for love, its significance in human life, and the fear of loneliness. The aim is to study Dostoevsky’s works more deeply and to convey their essence to readers.

Keywords: “White Nights”, the image of the dreamer, social analysis, the principle of paradox, conflict.

Аннотация. В статье рассматривается мастерство Достоевского в раскрытии человеческой психологии на примере его произведения «Белые ночи» и образа мечтателя — главного героя повести. Раскрываются такие темы, как внутренняя потребность человека в любви, её роль в духовной жизни, а также страх одиночества. Через это ставится цель глубже изучить творчество Достоевского и донести его идеи до читателя.

Ключевые слова: «Белые ночи», образ мечтателя, социальный анализ, принцип парадоксальности, конфликт.

Feodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” romani hajm jihatdan kichik bo‘lsa-da, ko‘p muhokamalarga sabab bo‘lgan. Asarni asl mohiyatini tushunish ba‘zan biroz og‘irlik qiladi, lekin chuqur tafakkur va asarni sinchiklab o‘qish ko‘plab masalalarga yechim keltirishi tabiiy holat.

Feodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” romani 1848-yil sentabr-noyabr oylarida yozilgan, ushbu asar Aeksey Pleshcheyevga bag‘ishlab nashr etilgan. 1848-yil 31-oktabrda nashrga ruxsat berilgan. Asar birinchi nashrdan keyin 2 marta 1860 va 1865-yillarda tahrirlangan. O‘zgartirishlar davomida asarning ko‘plab qismlari almashtirilgan¹. 1849-yil yanvar oyida nashr etilgan „Sovremennik“ asarida Aleksandr Drujininning ushbu asar uchun sharhi berilgan bo‘lib, unda tanqidchi „Oydin tunlar“ asarini „Golyadkin“, „Slabogo serdtsa“ asarlaridan yaxshiroq deya baholagan. Drujininning fikricha, asarning eng muhim kamchiligi shundaki, xayolparast obrazi aniq bir vaqt yoki zamonni tasvirlanmagan, uning kasbi va bir qancha boshqa xususiyatlari o‘quvchiga noma’lumligicha qolgan.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Oydin_tunlar

Tanqidchi: „Oydin tunlar”dagi xayolparast obrazining shaxsi yanada aniqroq yoritib berilganida va uning bir qancha xususiyatlari aniqroq yetkazib berilganda, asar badiiy adabiyot sohasida ko‘p narsaga erishgan bo‘lardi“, deb yozgan edi. Drujinin shuningdek, „har bir sahifada uchrab turadigan bir xillik“ka sabab asarni yozishda shoshqaloqlikka yo‘l qo‘yilgan degan fikrlarni ham keltirib o‘tgan². Drujinning ushbu fikri asarni o‘qiganda haqiqatga yaqindek tuyiladi. Sababi voqealar davomida sizda ko‘proq qahramon haqida bilgingiz, uni his qilgingiz keladi. Uning bu holatga tushish sabablarini o‘rganish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. Qahramonni qanchalar yaxshi bilsangiz uni shunchalar anglay bo‘shlaysiz deysin.

Stepan Dudishkin „Otechestvennyye zapiski”dagi o‘z sharhida „Oydin tunlar”ni 1848-yilda yaratilgan eng yaxshi asarlar qatoriga qo‘shib, Dostoyevskiy asarlarida qahramonlarning psixologik tahlili yetakchi rol o‘ynashini ta’kidlagan. Dudishkin asar to‘g‘risida shunday yozgan edi: „Muallif o‘z asarlarida bir xil so‘zlarni tez-tez takrorlashi, ko‘pincha har bir nafasida ideallikka erishishga harakat qiladigan qahramonlar obrazini yaratishi, shundoq ham bechorahol insonlarning qalbi muhabbat sabab yana bir bor parchalanish holatini tasvirlashi bois tanqid qilinadi „Oydin tunlar”da esa muallif bu borada deyarli benuqson. Asar yengil va o‘ynoqi ruhda yozilgan bo‘lib, agar bosh qahramonning o‘ziga xos xususiyatlari biroz boshqacharoq tasvirlanganida, ushbu asar badiiy jihatdan juda yetuk bo‘lar edi”³. Dudishkin fikriga ko‘ra asarda so‘zlarning takrorlanishi asarning ma’nosiga salbiy ta’sir ko‘ratadi, lekin yozuvchi qahramon timsolini ochib berar ekan, uning ruhiy holati kechinmalari va tuyg‘ularini ifodalashda so‘zlar takroridan foydalanish tabiiy hol. Bu asar qahromonining yanada ochiqroq ifodalashga xizmat qilgan. Yozuvchi Yevgeniy Tur 1861-yilda „Ruskoy rechi“ uchun yozgan maqolasida asarni maqtab, uni rus adabiyotidagi „eng yaxshi poetik asarlardan biri“, „ma’no jihatdan o‘ziga xos va ijro jihatdan juda nafis“ deya baho bergan⁴. Haqiqatdan ham asar bir nafasda o‘qiladigan, odamni hayajonga soladigan va o‘zidan uzoqlashtirmaydigan asar hisoblanadi. Hajm jihatidan kichik bo‘lishiga qaramay, insonning tafakkur olamini ishlashga majbur qiladi. Asardagi xayolparast obrazini real obraz sifatida ko‘rish qiyin masala lekin asar yozilgan vaqtda yozuvchining o‘zi ham uylanmagan bo‘lgani va bu kabi muhabbat masalalarini yaxshi tushungani tabiiy. Ayni yigitlik davrida ayrim insonlarda bunday holatlarning ba’zi ko‘rinishlari uchrab turadi. Ko‘pchilik asardagi xayolparast obrazini bo‘rttirilgan deb hisoblashishadi, lekin asarni tahlil qilishda joy va makon masalasiga ham e’tibor berish kerakligini unitib qo‘ymasligimiz lozim. Aslida har birimizning ichimizda aqlga sig‘maydigan narsalarni xayol qiladigan, dunyo tashvish va o‘ylari oldida miltillab, har eslaganda odamni xayolatga yetaklaydigan xayolparast inson yashaydi. Hatto yozuvchining o‘zi ham „Peterburgskoy letopis”ning to‘rtinchi felyetoni so‘ngida: „Biz hammamiz ozmi-ko‘pmi xayolparastlarmiz!“ jumllalarini keltirib o‘tgan⁵. Dunyodagi eng katta muvoffaqiyatlar, kashfiyotlar va yutuqlar aynan insonlarning xayollarini ro‘yobga chiqarish uchun qilgan harakatlari natijasida paydo bo‘lgan. Asarimiz qahramoni ham hayotiga oniy nur olib kelgan muhabbatidan ayrilar ekan ayollarning hatto o‘zlari ham yaxshi tushunmaydigan qalblarining

² Соломина. Русские писатели. – Москва Советская энциклопедия, 1989. – 520Б.

³ Соломина. Русские писатели. – Москва Советская энциклопедия, 1989. – Б523.

⁴ Соломина. Русские писатели. – Москва Советская энциклопедия, 1989. – Б522.

⁵ Farmonqulova Laylo Feodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” romanining oziga xosligi im fan xabarnomasi.2024.

qurboniga aylandi. "Oydin tunlar" asarining yakunida Dostoyevskiyning keyingi romanlarida rivojlanadigan ayrim xususiyatlar – paradoksallik prinsipi, vaziyatlar o'rtasidagi qofiyadoshlik (ya'ni o'zaro ohangdosh holatlar), sahnaviylik (voqealarning teatrlashgan ifodasi) namoyon bo'ladi.

Konfliktning yechimi jarayonida xristiancha ramziylik imitatsiya qilinadi – ya'ni asar epilogini belgilovchi "kuyov bilan uchrashuv" sahnasi shunday ramzdir.

Final qismida yakunlovchi kompozitsion element ajratib ko'rsatiladi: "Oradan 15 yil o'tib" bu epilog asarga tarixiy nuqtai nazar olib kiradi – shunday qilib, dastlab tasodifiydek tuyulgan voqealar aslida mantiqan bog'langan va muallif g'oyasini kuchaytiruvchi holatlar sifatida talqin qilinadi. Asarning asosiy g'oyasi – ayolning muhabbatda sadoqati o'z ideallarga sodiq bo'lish zaruratini tasdiqlaydi"⁶ Haqiqatdan ham qahramonimizning asar so'ngidagi o'ylari, ayniqsa, odamga qattiq ta'sir qiladi. Qahramonimiz yolg'izlik girdobida yana 15 yildan keyin shu xonada yolg'iz o'tirishini o'ylay turib, uning bu holatga kelishga sababchi bo'lgan qizga baxtli hayot kechirishini tilaydi. Insonda bunday tuyg'ularning bo'lishi uchun uning qalbi toza va samimiy bo'lishi kerak, aslida ana shunday qalb egalarigina o'zlarini kir dunyo bilan ovvora bo'lgan isonlardan uzoq tutib, o'z xayollari olamida yashaydilar.

Ba'zi kitobxon asarni tahlil qilishda ijtimoiy metoddan foydalanadi va asar qahramonining yolg'izligi o'sha davr jamiyatidagi insonlar kayfiyati aks etgan deb hisoblashishadi. XIX asr rus adabiyotida yaratilgan ko'plab asarda ushbu ruh sezilib turadi.

Qahramonimiz bo'lgan xayolparast jamiyat muommolaridan charchagan o'ziga ruhiy madad istayotgan, ammo qancha harakat qilmasin istaklarini amalga oshira olmayotgan insonlar obrazidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Dostoyevskiy inson ruhiyati uning tuyg'ularini ochib berish va o'quvchiga ta'sir etish mahoratiga ega yozuvchidir."Oydin tunlar" asari ham ana shunday go'zal namunalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соломина. Русские писатели. – Москва Советская энциклопедия, 1989.– Б629
2. Farmonqulova Laylo Feodor Dostoyevskiyning "Oydin tunlar " romanining oziga xosligi im fan xabarnomasi .2024
3. Тамара Павловна Баталова. Проблема жанрового завершения в романе Ф. М. Достоевского «Белые ночи».: Проблемы исторической поэтики, 2022 Т. Б129-141.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oydin_tunlar

⁶ Тамара Павловна Баталова. Проблема жанрового завершения в романе Ф. М. Достоевского «Белые ночи».: Проблемы исторической поэтики, 2022 Т. Б129-141